

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

## O'QUVCHI-QIZLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

**Saidova Parvina Mirzo qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

[psaidova@dtpi.uz](mailto:psaidova@dtpi.uz) +998 99 459 29 99

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari, o'quvchi-qizlarning ta'limgarbiysi, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, o'quvchi-qizlarimizning kamoloti va odob-axloqini yoshlikdan boshlab tarkib toptirish haqida so'z yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** iroda, matonat, tirishqoqlik, xushmuomalalilik, did-farosat, oilaparvarlik, mehribonlilik, kamtarlik, orastalilik, hayo, pokizalik hissi, nafosat.

## FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN PUPILS-GIRLS

**Saidova Parvina Mirzo kizi**

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

**Annotation.** This article talks about the current problems of youth education in the reforms implemented in our country, the education of female students, the formation of moral and moral qualities in them, the development of the maturity and morals of our students from a young age.

**Key words:** perseverance, diligence, politeness, taste, family, kindness, modesty, modesty, sense of purity, sophistication.

## ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У

**ШКОЛЬНИКОВ-ДЕВОЧЕК**

**Сайдова Парвина Мирзо кизи**

Денауский институт предпринимательства и педагогики

**Аннотация.** В данной статье говорится о современных проблемах воспитания молодежи в условиях реализуемых в нашей стране реформ, воспитании студенток, формировании у них морально-нравственных качеств, развитии зрелости и нравственности наших студентов с юных лет.

**Ключевые слова:** воля, настойчивость, трудолюбие, вежливость, вкус, семья, доброта, скромность, скромность, скромность, чувство чистоты, утонченность.

**Kirish.** O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta’lim, umumiy ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarishni taqozo etadi<sup>1</sup>. Bugungi kunda ayrim o‘quvchi-qizlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta’lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda. Shuning uchun o‘quvchi-qizlarning ta’lim-tarbiyasiga pedagogik-psixologik tomonidan yondashib ushbu jihatlarni o‘rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Axloqiy fazilatlar o‘quvchi-yoshlarning ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so‘zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo‘lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda xotin qizlarga har tomonlama imkoniyatlar yaratish, ularni jamiyatda o‘zining munosib o‘rinlarini belgilashlarida yaqinda yordam ko‘rsatilmoqda. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod ya’ni, o‘quvchi-qizlarimizning kamoloti va odob-axloqini yoshlikdan boshlab tarkib toptirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlar doirasida bu masalalar qonunchilik hujjatlarimizda ham alohida e’tirof etilgan. Xususan, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya

<sup>1</sup> Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

konsepsiysi”da qiz bolalarda egallanishi lozim bo’lgan quyidagi axloqiy fazilatlarga urg’u berilgan (1-rasm):

QIZ BOLALARDAGI AXLOQIY FAZILATLAR			
1.	ona Vatanga muhabbat	12.	mehribonlik
2.	milliy g‘oyaga sadoqat	13.	rahmdillik
3.	mehnatsevarlik	14.	kamtarlik
4.	jonkuyarlik	15.	ziyraklik
5.	oilaparvarlik	16.	mehmondo‘stlik
6.	ibo	17.	bolajonlik
7.	hayo	18.	murosalilik
8.	nafosat	19.	orastalik
9.	did-farosat	20.	saranjomlik
10.	qanoat	21.	xushmuomalalik
11.	vafodorlik	22.	pazandalik va h.k.lar

### 1-rasm. Qiz bolalarda shakllantirilishi lozim bo’lgan axloqiy fazilatlar.

O`quvchi-qizlarning axloqiy tarbiyasi bilan shug’ullanish har doim muhim masala bo’lib kelgan. Azaldan xalqimiz qiz bolalarning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan, oilalarda onalar tomonidan pokiza, oqil, dono, kata hayotiy tajribaga ega ayollarni o’z qizlariga enaga etib tayinlagan va ularga qizlar tarbiyasini ishonib topshirganlar. Xalqimiz oilada qizlarning axloqiy tarbiyasini tashkil etish borasida asriy tajribaga ega. Mazkur tajriba mazmuni milliy mentalitetimizga xos bo’lgan odob, axloqiy fazilatlar, hayo, pokizalik hissi bilan yo’g’rilgan pand-nasihatlar, mutafakkirlarning qarashlari, ilmiy-nazariy va amaliy g‘oyalaridan tashkil topgan. Uzoq yillar davomida oilaviy munosabatlarni yo’lga qo’yishda, qizlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ana shu tajribaga tayanib ish ko’rmoqda.

Oilada qizlar tarbiyasi nozik qadriyatdir: o’zbek oilalarning aksariyati o’zining serfarzandligi bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, ota-onalarning xoh o‘g‘il, xoh qiz, xoh to‘ng‘ich, xoh kenja farzand bo‘lmashin, ularga teng va odil munosabatda bo‘lishi, erkalatmasligi, kattalar namunasi orqali kuchlilikni tarbiyalashi ajobiy hodisadir. Bunday xususiyatlar qizlar uchun alohida ahamiyatga egadir. Qizlarga sharqona muloqot odobini tarbiyalashda oilada albatta onalar ibrat-namunadir. Oilalarda qiz bolalari kam bo’lgan ota-onalar, o’z farzandlarini ortiqcha erkalaydilar, qiz bola

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

oilaning tanho ovunchog‘iga aylanib qoladi. Natijada shunday qizlar erka, o‘jar, tantiq, shaxsiyatparast, kibrli va manman bo‘lib voyaga etishi mumkin.

Oilada qat’iy intizom va kun tartibining bo‘lishi qiz bolalar tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Qiz bolalarning bilim olishdagi yutug‘i, axloqi, or-nomusi, ibo-hayosi, tejamkor va oqila bo‘lishi, salomatlik darajasi ko‘p jixatdan oilada qaror toptirilgan oqilona tuzilgan oila rejimga bog‘lik. Shuning uchun ota-onalarning o‘zlari ham bu borada ibrat-na’muna ko‘rsatishlari darkor. Chunki, u katta bo‘lgach, nihol kabi boshqa uyga ko‘chib o‘tadi – oila quradi.

Oilada qizlar, bo‘lajak onalar alohida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishi va oilani boshqarishda yetakchi kuch ekanini unutmasligimiz lozim.

Oilada ota – fayz-baraka, ibrat timsoli, ona – mehr-muhabbat, tarbiya o’chog’i, frazand esa, go’zal tarbiya merosxo’ridir. Oilalarda nuroniy bobo va buvilarning borligi to’kin sochinlik, shod-u xurramlik, o’zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlaydi. Bunday muhitda voyaga yetgan farzand munosib tarbiya topadi. Oilalar kamoli ozir-oqibat jamiyat farovonligiga munosib hissa qo’shamdi. Abdurauf Fitratning “Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvgaga o’xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, baolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”<sup>2</sup>. Ushbu fikrlardan ko’rinib turubdiki, ota-onalar tomonidan berilgan go’zal axloq o’g’il-qizlarning tarbiyasiga jilo baxsh etadi. Ayniqsa, qizlarning tarbiyasiga onalar mas’ul hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, Temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo’lgan. Xususan, Saroymulkxonim Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug’beklar tarbiyasi bilan shug’ullangan<sup>3</sup>. Qadim o’tmishimizga nazar solsak bu kabi fidoyi ayollarimiz, oqila va dono buvijonlarimiz hamisha oz’ bilimi, tajribasi, aql0u zakovati bilan komil o’g’il-qizlarfni jamiyatimizga yetishtirib bergenlar.

Bugungi kunda yoshlarga o‘rtasida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish bugungi ota-ona, o‘qituvchi-murabbiy va tarbiyalanuvchilarning burchi hisoblanadi.

Kuzatishlarimiz davomida biz 9-10-sinf o’quvchilari uchun mo’ljallangan “Tarbiya” darsliklarini o’rganib chiqdik. Darsliklarda keltirilgan o’quvchi-qizlarning axloqiy fazilatlari haqidagi ma’lumotlarni jamlab chiqdik. Ma’lumotlar mavzular

<sup>2</sup> N.Ismatova, Z.Zamonov va b. “Tarbiya” (8-sinf). Respublika ta’lim markazi. 2021 yil 15-bet.

<sup>3</sup> N.Ismatova, Z.Zamonov va b. “Tarbiya” (8-sinf) . Respublika ta’lim markazi. 2021 yil 11-bet.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

doirasida kiritilgan. Unda pedagogik ta'sir etish usullari orqali tushuntirib o'tilgan, ibrat-namuna vositasida misollar keltirib o'tilgan. O'rta va yuqori sinflar (9-10-sinf) uchun mo'ljallangan "Tarbiya" darsligida biz tadqiqotimizga taalluqli quyidagi ma'lumotlarni aniqlab chiqdik. O'quvchilarning fazilatlarni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, qat'iy fe'l-atvorga erishish uchun to'rt qadam<sup>4</sup> maqsadlar zinapoyasi keltirilgan (1-rasm):

**Qiziqishingizni aniqlang, rivojlantiring, mustahkamlang.** Siz uchun nima mumkinligini aniqlab oling: qiziqishlaringiz haqiqatga mos kelsa, ularni rivojlantirish uchun zarur bilimlarni o'zlashtiring.

**Qobiliyatlaridan amaliyotda foydalaning.** Iqtidoringizdagi ojiz jihatga diqqat qiling; shu jihatingizni yengmasdan turib, g'alaba yo'qligini tushuning; bor kuch va diqqatni maqsadga yo'naltiring.

**Ishonch-e'tiqodingizni mustahkamlang.** Harakat bilan ezgu maqsadlarga erishish mumkinligiga ishoning; dunyoga ijobji nigohda qarng; o'zingiza bo'lgan ishonchni yuqotmang.

**Maqsadlaringizni aniqlang.** Maqsadingiz haqida batafsil o'rganing; vaziyatni jiddiy va qat'iyat bilan qabul qiling; siz qilayotgan ish o'zingiz va boshqalarhayotini qanchalar yaxshilashini o'ylang; mehnatingiz orqali hurmat-e'tibor qozonishga harakat qiling.

## 1.2. 1-rasm. Qat'iy fe'l-atvorga erishish uchun to'rt qadam.

Yuqorida keltirilgan va tavsiya etilayotgan ushbu tavsiya haqiqatdan ham o'quvchilar ongi va tafakkuridagi beqarorlikni oldini olishda muhim ta'sir ko'rsatish usuli sifatida talqin etiladi. Ushbu tavsiya orqali o'quvchi-qizlarning ijtimoiylashuvidanagi jarayonlarda axloqiy fazilatlarni egallash o'rni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Belgilangan ushbu maqsadlar orqali hayotda kerakli bo'ladigan puxta bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini tug'diradi.

Xulosa. Yuqoridagi kletirilgan mulohazalarni umumlashtirgan holda, "Tarbiya" fani darsligida keltirilgan "Katta o'zgarishlar qiluvchi kichik odatlar" nomli qismda aytilgan gaplar diqqatimizni tortdi: "Amalga oshirilgan barcha vazifalarni yozib boring. Shunda natijalardan paydo bo'ladigan xursandchilik ham yuzaga chiqadi. Majburiy

<sup>4</sup> SH.Sattorov, D.Ro'ziyeva, Z.Islomov va boshq. "Tarbiya".(9-sinf) "Ozbekiston", NMIU, 2020 yil 65 bet

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5

harakatlardan voz keching. O'zingizni qiyamaslikka harakat qiling. Harakatni kichik vazifalarni bajarishdan boshlang, rejangizni amalga oshirishdan to'xtamang". Ana shunday har bir shaxsni harakatga undovchi bu rag'batlantiruvchi so'zlar orqali bugungi kunning o'quvchi-qizlari ham o'zlarida axloqiy fazilatlarni rivojlantirish lozimligini alaohida ta'kidlashimizga yana bir bor sababchi bo'ladi. Chunki bizni harakatga keltiruvchi bu kuch har doim yuksak natijalarga olib keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)
2. N.Ismatova, Z.Zamonov va b. "Tarbiya" (8-sinf). Respublika ta'lim markazi. 2021 yil 15-bet.
3. SH.Sattorov, D.Ro'ziyeva, Z.Islomov va boshq. "Tarbiya".(9-sinf) "Ozbekiston", NMU, 2020 yil 65 bet